

1936 yil 30 iyun. Shu kun Margaret Mitchelning "Shamollarda qolgan hislarim" kitobining birinchi nashri dunyo yuzini ko'rdi. Garchand Mitchel nomi tarixda yakka -yagona asar muallifi bo'lsa-da, mazkur kitob o'z davrida boshqa barcha nashrlarni ortda qoldirib ketdi. "Shamollarda qolgan hislarim" bir kunda ellik ming, bir yilda bir yarim millionlab nusxada sotilgan paytlar bo'ldi. Birinchi yilning o'zidayoq kitob o'n sakkiz tilga tarjima qilindi. Shu nomdagi filmlarning katta ekranlarga chiqarilishi asarning yanada ommalashuviga sabab bo'ldi. Kitobda o'tgan asar boshlarida ro'y bergan uzoq o'tmishda qolgan voqealar aks etgan. Muhabbat, ehtiros, ayol qalbining turfa tovlanishlari, yoqimli makkoraliklar, beg'araz shumlik, nozu istig'nolar o'ziga xos badiiy uslub va joziba bilan aks etgan mazkur roman hanuz e'tiborda va miollionlab kitobxonlar e'tirofida. Vaholanki, davr o'zgaradi, qiyofalar almashindi. Biroq inson, fe'l-atvori o'sha-o'sha. Bosh qahramon Skarlettning har qanday vaziyatda o'zini yo'qotmay, umid bilan "Erta bir gap bo'lar"... deya aytgan iborasi qanot chiqarib, jahonning turli manzillardagi minglab ayollarning va albatta erkaklarning umid nishonasi, ko'ngil taskinidir.

Qisqacha

" **Shamollarda qolgan hislarim** " (inglizcha: *Gone with the Wind*) — amerikalik yozuvchi Margaret Mitchellning asari. Romanda 1860-yil, AQSh fuqorolar urushi davrida sodir bo'lgan voqealar aks ettirilgan. Asar 1936-yil 10-iyunda chop etilgan bo'lib, amerika adabiyotining eng mashhur, bozorgir kitoblaridan biriga aylandi. 1936-yilning oxiriga kelib bir milliondan oshiq adadlar sotildi. Shu yilning o'zidayoq Devid Selznik ismli prodyuser 50 000 dollar evaziga, Mitchelldan kitob asosida film olish huquqini sotib oldi. Mazkur film 1939-yilda olingan. 1937-yil Mitchell roman uchun Pulitser mukofotiga sazovor bo'ldi.

Sharh

Roman, 1861-yildan 1873-yilgacha sodir bo'lgan voqealarni o'z ichiga qamrab olgan. Amerikaning shimoliy sanoat va janubiy yer egaligiga oid shtatlari orasida fuqarolar urushi boshlanadi. Mamlakatda siyosiy va iqtisodiy ahvol shunday ediki, shimolliklar uchun quldorlikdan hech qanday foyda yo'q edi. Shuning uchun ular qullikni bekor qilishga axd qiladilar. Lekin janubliklar, bunday qarorga norozilik ko'rsatib, xususiy davlat yaratishga urunadilar. Bundan keyin urush boshlanadi.

Bosh qahramon Skarlett O'Hara kamyob qobiliyatga ega- u uchratgan barcha erkaklarni maftunkor qila oladi. Skarlettning fikri bo'yicha, Djonsboro shahrida yashovchi har bir yigit uni sevadi. Shubhasiz, ular

qatoriga Eshli Uilks ham kiradi. Lekin kutilmaganda Eshli amakisining qizi Melani bilan unashtiriladi.

Skarlett, Eshli bilan ochiq gaplashib olishga qaror qiladi. U hamma narsa o'z joyiga tushishiga ishonadi va Eshliga erga tegishni umid qiladi. Ammo Eshli, o'z va'dasining ustidan chiqishi kerakligini va nima bo'lgan taqdirda ham Melaniga uylanishini aytadi. Tasodifan bu suhbatni Rett Batler eshitib qoladi. Birdan sarosimaga tushib, Skarlett xonadan yugurib chiqib ketadi.

Ko'p o'tmay, Melanining akasi Charlz Gamilton, Skarlettning qo'lini so'raydi. Skarlett Eshlidan qasos olish maqsadida, o'z roziligini bildiradi. Ular Eshli Uilks va Melani Gamiltonlarning to'yligidan bir kun oldin nikoh quradilar.

Urush boshlanadi. Charlz qurolli kuchlar majmuasiga xizmatga ketadi. Lekin jangda ishtirok etishga ulgurmay, janubiy lagerlarning birida qizamiq orttirib xalok bo'ladi. Skarlett esa, undan meros evaziga o'g'li Ueyd qoladi. Skarlett 17 yoshida bevaga aylanadi. Endi u umrining oxirigacha motam kiyib yurishiga to'g'ri keladi. Skarlett uchun hayoti go'yo tugagandek edi. Oldingi o'yin-kulgular, raqslar va beg'amlik endi ortta qoldi. Hayotining bunday tez o'zgarib ketishidan ruhiy ta'sirlanib, Skarlett Atlantaga yo'l oladi. U yerda Charlining xolasi Pitti va Melani yashaydilar. Ularning uyligida turib Skarlett Eshliga yaqinroq bo'lishni umid qiladi.

Atlantada Skarlett yana bir bor Batlerni uchratadi. Rett, Skarlett uchun hali hech narsa tugamaganini va hayoti hali oldinda ekanligini aytadi. Jamiyatda qabul qilingan qoidalarga qarshi chiqib, Skarlett motamni yechib tashlaydi.

Janubliklarning turli xil shartliliklarga bo'lgan qat'iy talabchanligi asta-sekin so'nib boradi. Chunki urushning o'z qonunlari mavjud. Avvalgi odatiy hayot butunlay o'zgarib ketgan. Ilgari qo'ni-qo'shnilar bir birlarini bolaligidan tanigan bo'lsa, endi hamma yigitlar begona yurtlarga urushga ketishgan. Atlanta esa yangi chehralar bilan to'lgan.

Iso payg'ambarning tavalludi bayramida, Eshli ta'tilga uyga qaytib keladi. Ko'p vaqt o'tmay, Melani homilador ekanligini e'lon qiladi. Homiladorlik juda og'ir kechadi. Eshli yana urushga ketib, bedarak yo'qolib qoladi. Skarlett Eshlini shimolliklar asirga olishganligini tushunadi.

Yankilar Atlantaga yaqinlashadilar. Atlanta aholisi shaharni tark etadi. Lekin Melani og'ir ahvolda bo'lib, uyda qolishga majbur bo'ladi. Skarlett esa Eshliga bergan va'dasi bilan bog'langan bo'lib, Melani bilan birga qoladi. Atlanta xalok bo'lgan kun Melanining farzandi dunyoga keladi. Endi Eshlining o'g'li bor — Bo' Uilks.

Rett, Melani tug'ganini eshitib ot-arava topib keladi. Ular qamal qilingan Atlantani tark etadilar. Lekin yarim yo'lda, Rett ayollarni yolg'iz qoldirishga majbur ekanini aytadi. Chunki uning fikri bo'yicha Konfederatlar qatoriga yozilish uning burchi. Skarlett bunday gaplarni eshitib vahimaga tushadi. U

nafrat bilan Rettning bu qilmishini hech qachon esdan chiqarmasligini aytadi. Bundan so'ng uygacha bo'lgan uzoq yo'l boshlanadi.

Skarlett, Melani, ularning o'g'illari: Bo' va Ueyd, hamda xizmatkor qiz Prissi Taraga qaytib keladilar. U yerda, sershovqin dunyodan olisda, jimjitlik bo'lishi kerak. Tara butun. Ammo u hovillab qolgan. Uy yankilarning shtabiga aylangan. Qullar qochib ketishgan. Lekin eng sodiq xizmatkorlar qolgan: O'Hara oilasining enagasi-Mamushka, Djeraldning xizmatkori-Po'rk va uning rafiqasi Dilsi.

Skarlettga, uning kelishidan biroz avval onasi olamdan o'tgani haqida xabar berishadi. Singillari esa, terlama kasalligiga duch kelishgan. Otasi Djerald rafiqasidan mahrum bo'lganiga bast kelolmay, ongini yo'qotib qo'ygan.

Skarlettning esa qayg'urishga vaqti yo'q. U yaqinlarining muammolarini yechishga va turli xil qarorlarni qabul qilishga, qodir bo'lgan yagona insonga aylanadi. Ekin maydoniga tegishli tashvishlarni ham o'z bo'yniga oladi. Ko'p o'tmay Tarani boshqarish butunlay uning qo'lida qoladi. Skarlett o'z g'ururiga parvo qilmay, xizmatkorlarning xudbinligiga va singillarining injiqliklariga bardosh berishga harakat qiladi. Skarlettning irodasi tufayli ular hattoki oz miqdorda bo'lsa ham, hosil yeg'ishga ulguradilar. Kitobning birinchi jildi Eshlining Taraga qaytib kelishi bilan tugaydi.

Skarlett, Tara uchun soliq to'lashga puli yo'qligi sababli, Rett Batlarga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Biroq Atlantaga kelib Rett qamoqxonada ekanligini aniqlaydi. Uning barcha rejalari birdan barbod bo'ladi. Lekin kutilmaganda, u Frenk Kennedini uchratadi. Kennedi Skarlettning singlisi, Syulining kuyovi edi. Ammo Skarlett bunday vaziyatni e'tiborsiz qoldirib, Tara uchun pul undirish maqsadida, Frenkni o'ziga uylantirib olishga qaror qiladi. Kennedining rafiqasi sifatida, Skarlett o'zida tadbirkorlikka bo'lgan qobiliyatlarni ochadi. Ko'p o'tmay Frenkning do'konida boshqarish ishlarini o'z qo'lga olib, taxta tiladigan zavod xam sotib oladi. Bundan so'ng kambag'allik, ochlik va Tarani yo'qotib qo'yish xavfi ortta qoladi.

Frenk va Skarlett farzandli bo'ladilar. Qizning ismini Ella Lorina deb qo'yishadi. Eshli Shimolda o'ziga ish topadi, ammo Skarlett uni yo'qotib qo'yishdan qo'rqib, Melani bilan Atlantaga ko'chib kelishga ko'ndiradi. Skarlett vasiylik qilishda to'xtamaydi. Hatto o'zining zavodida Eshliga ish ham topib beradi. U har doimgidek Eshli bilan birga bo'lishni orzu qiladi.

Skarlett taxta tiladigan zavodga ketayotganida unga bezorilar hujum qilishadi. Frenk bu bezorilar erkin negrlar ekanini aniqlaydi va ku-kluks-klan tomonidan uyushtirilgan hujumda ishtirok etadi. Bundan so'ng u erkin negrlar lagerida vafot etadi. Dafn qilish marosimidan so'ng, Rett Butler Skarlettning qo'lini so'raydi. Skarlett uchun endi yangi hayot boshlanadi. U yana bir bor ona bo'ladi. Bo'nni Blu Skarlettning eng sevimli farzandiga aylanadi. Rett ham qizi uchun hamma narsaga tayyor edi. Lekin Bo'nni 4 yoshga kirishga ulgurmay, to'pichoq ottan yeqilib olamdan ko'z yumadi. Bu hodisadan so'ng Skarlett va Rett tamomila bir

birlaridan uzoqlashadilar.

Melani esa ikkinchi marotaba homiladorlikni ko'tara olmay, vafot etadi. Ammo o'limdan oldin Skarlettga Rett uni sevishini aytadi. Skarlett esa Eshlini hech qachon yaxshi ko'rmaganini, haqiqatda Rettni sevishini tushunib yetadi. Endi hamma narsa boshqacha bo'lishiga ishonib, Rettga o'z tuyg'ularini iqror qiladi. Ammo Rett bu gaplarni e'tiborsiz qoldiradi. Uning Skarlettga bo'lgan tuyg'ulari allaqachon so'nib bo'lgan. Lekin Skarlettning bunday xol qoniqtirmaydi. U Rettning qaytarish niyatida qoladi:

Bularning barchasi haqida ertaga, Tarada o'ylayman. U yerda buning uddasidan chiqaman. Ertaga Rettning qaytarish yo'lini topaman. Axir ertaga boshqa kun bo'ladi.

Qahramonlar

- **Ketti Skarlett (O'Hara) Gamilton Kennedi Batler** Bosh qahramon. Skarlett tannoz qiz, badavlat uyga merozxo'r. Doim ota-onasi va xizmatkorlar qaramog'ida. Romanning ohirida (1873 yil) Skarlett yaqinlarining o'limini, 1861-65 yillardagi fuqorolar urushini va Janubning qayta qurilishini boshdan o'tkazadi. U ota-onasini, farzandini, sevgisini va do'stlarini yo'qotgan bo'lsa ham taslim bo'lmaydi. Skarlett ertaga boshqa kun bo'lib, barcha xatolarni tuzatish uchun yangi imkoniyat paydo bo'lishiga ishonadi.
- **Kapitan Rett K. Batler** Jamiyatda qabul qilingan barcha qoidalarni hazar qiluvchi, badavlat inson. Ko'zlagan maqsadlarida muvaffaqiyatga erishish uchun hamma narsaga tayyor. Atlanta va Djonsboro aholisi oldida obro' va ehtiromni yo'qotgan bo'lsada, chindan juda aqlli, rahmdil va bag'ri keng inson. Odamlarda birinchi navbatda ichki go'zallikni qadrlaydi.
- **Mayo'r Djo'rdj Eshli Uilks** Djordjiyadagi eng yaxshi o'q otuvchilar, qartabozlar va otliqlar qatoriga kirishidan qat'iy nazar, uzoq muddat davomida o'z ichki dunyosida yashaydi. Urush paytida jasur va ishbilarmon zobit sifatida taniladi. Urushdan keyin esa Ku-kluks-klaning mahalliy rahnamolaridan biriga aylanadi. Ammo urush Eshlini hamma narsadan mahrum qiladi. Janubning qayta qurilishi davrida, yangi dunyoga mutlaqo moslashmaganligi sababli sarosimaga tushib qoladi.
- **Charlz Gamilton** Skarlettning birinchi eri. Urush davrida qizamiq orttirib xalok bo'ladi
- **Melani Gamilton Uilks** Charlining singlisi. Eshlining rafiqasi. Mehribon, nozik, ochiqko'ngil va sodda qiz. Melani odamlarga doimo ishonadi.
- **Syullin va Kerrin** Skarlettning singillari. Kerrinning sevgisi urushga ketib xalok bo'ladi. Bundan so'ng u Charlstonidagi monastirga ketadi. Syulin esa, Konfederat askari- Uill Bentinga erga tegadi. Uill Tarada qolib xo'jalik ishlarini oboradi.
- **Frenk Kennedi** Syulinning kuyovi. Skarlettning ikkinchi eri. Ku-kluks-klan a'zosi. Erkin negrlar lagerida vafot etadi.

- **Bo'(Bo'regar) Uilks** Melani va Eshlining o'g'li.
- **Ueyd Xempton Gamilton** Skarlett va Charlzning o'g'li.
- **Ella Lorina Kennedi** Skarlett va Frenkning qizi.
- **Bo'nni Blu Batler** Skarlett va Rettning qizi. Aslida uning ismi *Yudjini Viktoriya Batler* edi. Lekin Melani go'dakni birinchi marotaba ko'rganda, uning moviy ko'zlari Konfederatlar bayrog'ining rangiga oxshar ekan deydi. (Bu bayroqning nomi "Bonny Blue"). Bunga javoban Rett Yudjinini qo'lga olib „Bo'nni Blu Batler“ deb kuladi. Bundan keyin qizni faqat shu ism bilan atashadigan bo'ladilar. Bo'nni 4 yoshga kirishga ulgurmay, to'pichoq ottan yeqilib olamdan ko'z yumadi.

Syujet

Avvaliga romanning bosh qahramoni Skarlett beparvo yosh qizga o'xshab tuyuladi. Qiz o'ziga atalgan iltifotlarni tinglashni va qo'shni yigit Eshli haqida o'ylashni istaydi. Qiz urush haqida hech narsa eshitishni xohlamaydi. Eng muhimi, u qo'shnisi Eshliga turmushga chiqishni orzu qiladi.

Skarlett go'zal, yorqin va g'ayrioddiy temperamentga ega qiz. Ammo qizning keyingi hayoti boshqacha kechadi. U sevgilisi Eshli bilan turmush qurmaydi, unga achchiq qilib boshqasiga turmushga chiqadi.

Keyin dahshatli urush paytida qo'lida bolasi bilan yolg'iz qoladi, eri urushda halok bo'ladi. Bundan tashqari, u Eshlining xotiniga ham g'amxo'rlik qilishi kerak; bu juda qiyin bo'ladi.

Taqdir Skarlett O'Xara uchun juda ko'p sinovlarni tayyorlaydi, lekin aynan shu sinovlar uning xarakteri kuchli ekanini namoyish etadi va bu fazilatlar ayolga barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishga, hatto eng murakkab vaziyatlarda ham nafaqat o'zi uchun, balki uni sevadigan va unga muhtoj bo'lganlar uchun ham yo'l topishga yordam beradi.

♥ 0

Do'stlarga ulashing



Like this:

Loading...

